

8 Mavzu: O'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyoti va boshqaruvi

Reja:

- 1 O'simlikchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va uni o'rganish xususiyatlari.
- 2 O'simlikchilikning asosiy tarmoqlari va ularning xususiyatlari.
- 3 Chorvachilikning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va uni rivojlantirish asoslari.
- 4 Chorvachilikning asosiy tarmoqlari va ularning xususiyatlari.
- 5 Chorvachilik tarmoqlari ishlab chiqarishi va uning iqtisodiy samaradorligi.

Kalit so'zlar: o'simlikchilik, donchilik, paxtachilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, Chorvachilik, qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik, pillachilik, baliqchilik, asalarichilik

Foydalangan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar

- 1 nSamatov G'.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti.- T.: 2012. - 346 b.
- 2 Umrzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Rashidov J., Toshboyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti: o'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod - moliya, 2008. - 268 b.
- 3 Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: o'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2009. - 208 b.

Xorijiy adabiyotlar:

- 1 Charles W. L. Hill, Steven L. McShane. Principles of Management. 13th ed. ISBN 978-0-07-353012-3. -New York, 2008. -529 p.
- 2 Richard L.Daft. Management. 12th ed. ISBN 978-1-285-86198-2. - Boston, 2016. - 798 p.
- 3 Rickky W. Griffin. Fundamentals of Management. 8th ed. ISBN 978-1-285-84904-1. -Texas, 2016. - 547 p.
- 4 Ronald D. Kay, William M. Edwards, Patricia A.Duffy. Farm management. - 6th ed. ISBN 978-0-07-302829-3 - ISBN 0-07-302829-0. -New York, 2008. - 463 p.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni riojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF-4478- sonli Farmoni.
- 2 Nazimov S., Eshonxo'jayev D. Qishloq xo'jaligida menejment. Namangan, NamMPI, 2001.

1 O'simlikchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va uni o'rganish xususiyatlari.

O'simlikchilik - qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, o'z ichiga dalachilikda ekinlarni yetishtirish paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, mevachilik, bog'dorchilik va shu kabilarni oladi. Odam undan oziq-ovqat mahsulotlarini, yengil va oziq-ovqat sanoati qayta ishlash uchun xom-ashyo, chorvachilik - ozuqa oladi.

Tarmoq tuzilmasining ko'rsatkichi bo'lib umumiy hajmda ishlab chiqilgan mahsulotlarning har bir tarmog'idan sotilgan mahsulotning ulushi xizmat qiladi. Hozirgi paytda o'simlikchilik qishloq xo'jaligining hamma mahsulotlari orasida eng ko'p ulushni egallaydi.

O'simlikchilik yem-hashak, dag'al, yashil, shirali ozuqa bo'lib, chorvachilikning rivojlanishi uchun baza hisoblanadi. O'z navbatida chorvachilik ham somon, poya, shuningdek, oziq-ovqat sanoati chiqindilari (kunjara, shyeluxa, kyepak, barda va b.) kabi qo'shimcha mahsulotlarni chiqaradi.

O'simlikchilikda foydalaniladigan asosiy resurs - bu yer, pichanzor, yaylov, bog'lar. Haydaladigan yer maydonini ekinlar bo'yicha taqsimlash uzoq vaqtlargacha qabul qilingan dehqonchilik tizimiga bog'liq bo'ldi. Xo'jaliklar daromadliroq ekinlarni tanlay boshladilar va ekin ekiladigan, yer maydoni strukturasi narx ta'siri ostida o'zgarib boshladi.

Shu tarzda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hamma turini, chorvachilikni va qayta ishlashni ham qo'shib ishlab chiqish, bevosita o'simlikchilikni shartli ravishda quyidagi tarmoqlarga ajratish mumkin: paxta ishlab chiqarish, g'alla ishlab chiqarish, yog'li ekinlar ishlab chiqarish, kartoshka va sabzavot ishlab chiqarish, meva va polizlar o'stirish. Bu tarmoqlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ryealizatsiya qilish texnologiyasi har biri o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Ushbu sharoitda eng rentabelli bo'ladigan qishloq xo'jaligi ekinlarini tanlashda tabiiy-iqlim omillari, transport tarmoqlarining rivojlanishi, mintaqada u yoki bu mahsulotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan qayta ishlash korxonalarining mavjudligi katta ta'sir o'tkazadi.

Barcha g'alla mahsulotlarini oziq-ovqat va yem-hashakka ajratish qabul qilingan. Shu bilan birga, oziq-ovqatga oid ekinlar tarkibidan non va non mahsulotlariga doirlari ajratiladi.

Umuman, asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari sanab o'tilgan guruhlar bo'yicha quyidagi tarzda klassifikatsiyalanadi:

- paxta-paxta xom-ashyosi;
- oziq-ovqat - non mahsulotlari olinadigan g'alla ekinlari, bug'doy, javdar;
- oziq-ovqat - krupa-g'alla ekinlari: tariq, grechixa, makkajo'xori, sholi;
- yem-hashak ekinlari;
- dukkakli ekinlar;
- yog'li ekinlar: kungaboqar, kanop, zig'ir;
- texnika ekinlari: kartoshka, qand lavlagi;
- sabzavotlar: pomidor, bodring, piyoz, sarimsoq piyoz, karam, sabzi;
- mevalar: danakli mevalar, pista mevalar, uzum va boshqa ekinlar.

Keltirilgan ro'yxat mamlakatimiz hududida o'stiriladigan hamma ekinlarni qamrab ololmaydi. Ro'yxatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning umumiy hajmida eng ko'p ulushiga ega bo'lganlari, holos.

O'simlikchilikda ishlab chiqarishning asosiy vositasi - yer. Undan to'g'ri foydalanish tuproq unumdorligining oshishiga yordam beradi, bu esa qishloq xo'jaligi ekinlarini o'stirishga samarali ta'sir qiladi. Yerdan foydalanishda xo'jalik yuritishning hududiy tizimini yuritishning hisobi katta ahamiyatga ega.

Dehqonchilik tizimi deganda tuproq unumdorligini oshirishga, o'simlikchilik mahsulotlarining yer maydoni, birligidan mehnat sarfini va mahsulot birligiga mablag' va mehnat sarflarini kamaytirib, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida tuproqni suv va shamol eroziyasidan himoyalashga yo'naltirilgan tashkiliy va agrotexnik tadbirlar kompleksi tushuniladi.

Dehqonchilik tizimining asosiy elementlari: almashlab ekish tizimlari, mashinalar tizimi, o'g'itlar tizimi, urug'chilik tizimi, o'simliklarni himoya qilish tizimi, melioratsiya tadbirlari tizimi (sug'orish, quritish, kimyoviy melioratsiya va boshqalar), suv va shamol eroziyasiga qarshi kurash bo'yicha tadbirlar tizimi, dalani himoyalash, ixota daraxtlarini yaratish.

Mamlakatning hamma mintaqalarida dehqonchilikning yagona tizimidan foydalanishning imkoni yo'q, chunki turlicha tuproq-iqlim sharoitlarida tizimidagi alohida elementlarning ahamiyati har xil bo'ladi.

Ouruq iqlimli tumanlarda - sug'orish, shamol eroziyasiga qarshi kurashish, namlik ko'p tumanlarda - verning melioratsiya holatini yaxshilash, sug'oroladigan dehqonchilik tumanlarida - o'g'itlardan oqilona foydalanish, sho'rlangan va kislotasi yuqori tuproqlarda - kimyoviy melioratsiya katta ahamiyatga ega.

Dehqonchilik tizimining asosini almashlab ekish tizimi - dala, o'tloq- beda, makkajo'xori, sabzavot, tuproqni himoya qiluvchi va boshqa ekinlarni almashlab ekish tashkil etadi. Ilmiy asoslangan almashlab ekishlar - tuproqqa ishlov berishning tavsiya etilgan tizimini joriy etish uchun sharoit yaratadi, uning suv-havo tizimini yaxshilaydi, yuqori samarali texnikadan, organik va mineral o'g'itlardan foydalanishga imkon beradi.

Unumdor tuproqqa mexanizatsiyalash (mashinalar tizimi) ulkan ta'sir etadi. Mashinalardan oqilona foydalanish tuproqda namlik yig'ilishiga, havo va issiqlik tartibi to'g'rilanishiga, dalaning ifloslanishiga qarshi kurashga, qishloq xo'jaligi ishlarini optimal muddatlarda o'tkazishga yordam beradi. Qishloq xo'jaligi ishlab shiqarishini kompleks mexanizatsiyalash o'simlikchilikda mehnat unumdorligini oshiradi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga texnik xizmat ko'rsatish, hamma turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun ma'lum maqsadlarni ko'zda tutadigan mintaqaviy dasturlar ishlab chiqiladi.

Dehqonchilik tizimi mineral va organik o'g'itlarni qo'llashni ko'zda tutadi. Kiritiladigan o'g'itlar dozasi ko'paytirilgan sug'oriladigan yerlarda o'g'itni yuqori darajada qoplash kuzatiladi. Qisqa muddatlarda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish imkoni bo'lgan intensiv texnologiyalarda ishlab chiqarish xarajatlari strukturasi o'g'it va o'simliklarni himoya qilish vositalarining ulushi ortishi (masalan, paxta va g'alla ekinlari bo'yicha 1,5 dan 3,5 martagacha) ko'zda tutiladi.

Hozirgi paytda o'g'itlar qiymati yuqorililigi bilan bog'liq holda ularning qoplanishi normativdan 60% ni tashkil etadi, shu bois muhim masala optimal usullar va ularni kiritish muddatlari, ozuqa elementlari nisbati to'g'riligi muhim masala hisoblanadi.

O'g'itlashning pasayishi tuproqdan ozuqa moddalar to'liq chiqmasligiga sabab bo'ladi. Tuproqda chirindi va ozuqa moddlarining defitsitsiz balansini yaratish uchun 1 ga shudgorlanadigan ekin maydoniga har yili 7-8 t organik modda zarur. Dehqonchilik tizimida urug'chilik tizimi katta rol o'ynaydi, chunki urug'ning sifati past bo'lsa, qishloq xo'jalik mahsulotlari sezilarli darajada to'liq bo'lmaydi. Mamlakatimizda u yoki bu tuproq iqlimiga moslashtirilgan minglab nav va gibridlar yaratilgan va ishlab chiqarishga joriy etilgan. Biroq, urug'chilikning yaxshi tashkil etilmaganligi, urug'chilik xo'jaliklari birinchi va ikkinchi ryeproduksiyadagi yaxshi urug'lar bilan ta'minlanmaganligi tufayli rayonlashtirilgan sifatli urug'larga talab to'liq qondirilmayotir.

2 O'simlikchilikning asosiy tarmoqlari va ularning xususiyatlari.

Mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlashning muhim rezervi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xom-ashyo va oziq-ovqatning mintaqaviy fondlarini yaratishdir.

O'simlikchilik mahsulotlarini xarid va yetkazib berish hajmi va ro'yxati hukumat tomonidan, mintaqaviy fondlar - O'zbekiston Respublikasi sub'yektlari ijroiya hokimiyati sub'yektlari tomonidan belgilanadi. Xarid va yetkazib berish hajmi yillik aniqlashtirish bilan byesh yilga belgilanadi va davlat tomonidan kafolatlanadi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan tub iqtisodiy islohotlar g'alladan yuqori va sifatli hosil olishning asosiy omili bo'lmoqda.

Sug'oriladigan yerlarda o'rtacha hosildorlik Andijon viloyatida 62,1 s., Qashqadaryo 57,9 ts., Surxondaryo 56,3 ts., Buxoro viloyatida 56,1 ts., Samarqand viloyatida 54,0 ts., Toshkent viloyatida 53,0 ts., Farg'ona viloyatida 50,6 sentnerni tashkil etdi. Shuni aytish joizki, ayrim ilg'or fermer xo'jaliklarida hosildorlik gektaridan 60-70 sentnerni, hattoki, undan ortiqni tashkil etdi.

Keyingi yillarda jami ekin maydonlar miqdori qisqardi (2000 yilda 3778,3 ming ga 2009 yilda 3608,5 ming ga cha), shu jumladan paxta ekin maydoni (1444,5 ming gektardan 1347,1 ming gektargacha) va donli ekinlar (1614,0 ming gektardan 1610,6 ming gektargacha) ham. Paxta va g'alla ekin maydonlari qisqarishi hisobiga kartoshka, sabzavot va poliz ekin maydonlari miqdori 2000 yilda 5,9% dan 2009 yilda 5,8% gacha kengaygan.

Bunday natijalarga navlarning biologik xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir mintaqaning tabiiy-iqlim sharoitiga mos navlarni to'g'ri tanlash va joylashtirish gektaridan 60-70 sentnerdan hosil yetishtirish bo'yicha aniq agrotexnik tavsiyalar va ilmiy asoslangan intensiv texnologiyalarning ishlab chiqilganligi va keng joriy etilayotganligi hisobiga erishilmoqda.

Seleksiya va urug'chilik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida xorijiy ilmiy muassasalardan 100 dan ortiq yangi bug'doy navlari keltirilib, ular mahalliy sharoitimizda har tamonlama sinovdan o'tkazilib, serhosil, yuqori sifatli, kasallik va zararkunandalarga chidamli bo'lgan 23 ta yangi navlari ishlab chiqarishga joriy etildi.

Bu navlar ichida Kroshka, Polovchanka, Krasnodarskaya-99, Kuma, Moskvich, Tanya, Yesaul, Fortuna, Vostorg, Pamyat, Selyanka kabi intensiv navlar ishlab chiqarish sharoitida har gektaridan 60-70 sentnerdan oshirib hosil bermoqda.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan qurg'oqchilikka va sho'rga chidamli hosildorligi yuqori Chillaki, Bobur, Andijon-1, Andijon-2, Andijon-4 O'zbekiston-1, Hosildor, Zamin-1, Do'stlik, Omad, Makonat, Asr kabi mahalliy bug'doy navlari yaratilib Davlati nav sinoviga berildi. Kelgusida har bir mintaqaga sharoiti uchun mos yangi navlar yaratish bo'yicha ilmiy ishlar jadal olib borilmoqda. Buning uchun Rossiyaning Saratov Yugo-Vostoka, Serbiyaning Noviy sad ilmiy tadqiqot institutlari, IKARDA, SIMMIT Xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorlikda shu mintaqaga xos bo'lgan yangi navlar yaratish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Biroq ayrim viloyat, tuman hamda fermer xo'jaliklarida boshhoqli don ekinlarini o'stirishda agrotexnik tadbirlarini bajarishning texnologik talablariga rioya qilinmaganligi natijasida dondan yuqori va sifatli hosil olinmayapti.

Buning asosiy sababi boshhoqli don ekinlarini yetishtirish texnologiyasidagi agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida sifatli qilib o'tkazmasligidir.

Ayniqsa tuproq unumdorligiga ahamiyat bermaslik, yerni ekishga sifatli tayyorlanmasligi, organik va ma'dan o'g'itlar yetarli miqdorda va to'g'ri nisbatlarda qo'llanilmasligi, g'allani sug'orishni o'z vaqtida va sifatli o'tkazmaslik, kasallik va zararkunandalarga hamda byegona o'tlarga qarshi o'z vaqtida choralarda ko'rmaslik, g'alla navlarining hosildorlik imkoniyatidan to'la foydalana olmaslik don sifatining pasayishiga olib kelmoqda.

Boshhoqli don ekinlarini parvarishlashda qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlarning bajarilishining texnologik talablariga to'la rioya qilingandagina yanada yuqori va sifatli

don hosili olishga erishiladi.

Umuman olganda g'alla hosildorligi tuproq-iqlim sharoiti, ekilayotgan nav xususiyati, qo'llanilayotgan agrotexnik tadbirlarga bog'liq. Boshqali don o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va don sifatiga ta'sir etuvchi agrotexnik tadbirlardan har bir mintaqaning tuproq va iqlim sharoitiga mos nav tanlash, yerni ekishga sifatli tayyorlash, navdor va ekish sifati yuqori urug'lik bilan mintaqa uchun maqbul muddat va me'yorda ekish, ekilgan urug'likni bir tyekisda undirib olish, bug'doy maysalari to'la to'plangan holda tinim davriga kirishi uchun barcha agrotexnik tadbirlarni o'tkazish, sug'orish, ma'dan va organik o'g'itlar bilan oziqlantirish, o'suv davrida ildizdan tashqari azotli o'g'itlar bilan oziqlantirish suspenziya sepish, begona o'tlar kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash, yetishtirilgan hosilni nobudgarchiliksiz yig'ib olishga bog'liq.

Paxtachilik sohasidagi agrotexnik tadbirlarni (*bu tadbirlar asosan ishlab chiqarish va bozor infratuzilma sub'yektlari tomonidan amalga oshiriladi*) o'z muddatida bajarilmasligi yoki ayrim resurslarni belgilangan me'yorlarda berilmasligi natijasida mumkin bo'ladigan nobudgarchiliklar miqdori hisob kitoblarni keltirish mumkin, ya'ni:

- chigit ekishni o'z muddatida o'tkazilmasligi, g'o'zaning kech unib chiqishi hosildorlikni o'rtacha 3,4 s/gacha;

- sho'rlangan maydonlarning sho'rini yuvmaslik yoki sifatsiz sho'r yuvish 9,0 s/gacha;

- nam saqlash uchun boronalashni o'tkazilmasligi o'rtacha 3,4 s/gacha;

- chigit ekishdan oldin tuproqning yumshatilmasligi o'rtacha 2,8 ts/gacha;

- chigit ekishdan oldin mola bilan tyekislaslik esa 1,6 s/gacha;

- umumiy chigit ekishdan oldin maydondagi kyesaklarni maydalab tuproqni ekishga tayyorlamalik o'rtacha 8,8 s/gacha;

- chigit ekishdan oldin mineral o'g'itlarni bermaslik 2,5 s/gacha;

- chigitni agrotexnik talablar asosida sifatli tayyorlamalik 1,3 s/gacha;

- barcha turdagi mineral o'g'itlar berishni 1 iyulgacha tugatmaslik 10,3 s/gacha;

- yagonani kyechnik o'tkazish yoki chigitni qayta ekish hosildorlikni 2,2 s/gacha

kamayishiga sabab bo'ladi:

- begona o'tlar to'liq tozalansa, hosildorlik 3,6 s/gacha;

- paxta maydonlarini har 3 yilda joriy tyekislash o'rtacha 6,6 s/gacha;

- har gektar maydonga 12 tonna organik o'g'itlarni berish hosildorlikni o'rtacha

2,1 s/gacha oshiradi.

Hisob kitoblardan ko'rinib turibdiki, paxtachilik umuman qishloq xo'jalik mahsulotlari hosildorligini oshirish, eng avvalo, fermer xo'jaliklariga infratuzilma sub'yektlarining samarali xizmat ko'rsatishi va ta'minot korxonasi tomonidan moddiy resurslarni o'z vaqtida yetkazib berilishiga bog'liq.

3 Chorvachilikning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va uni rivojlantirish asoslari.

Chorva hayvonlari barcha turdagi ozuqa resurslarini insonlar iste'moli uchun qariyb tayyor va sanoat uchun natural xom-ashyo mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Natijada asosan o'simlik va boshqa ozuqa resurslari nobud bo'lmasligiga bevosita sharoit yaratadi, xalq xo'jaligi tarmoqlari shu jumladan, qishloq xo'jaligining sosial iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Chorvachilikdan aholi iste'moli uchun sut, go'sht, yog', tuxum va boshqa mahsulotlar olinadi. Ilmiy asoslangan me'yor bo'yicha jon boshiga iste'mol qilinadigan barcha mahsulotlar oqsilning 60 %, ularning kaloriyaga aylantirilgani esa 30 % ni tashkil etishi zarur.

Oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlarining xom-ashyo bazasining anchagina

qismi ham chorvachilik mahsulotlari hisobiga tashkil topadi. Ular qayta ishlashdan jun va ipakli gazlamalar, charm, turli xil oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlanadi. Aholi tomonidan iste'mol qilinadi.

Chorvachilikning qo'shimcha mahsulotlari (go'ng va boshqalar) o'simlikchilik tarmoqlarida organik o'g'it shaklida va boshqa mahsulotlar uchun ishlatiladi, yerning unumdorligini binobarin ekinlar hosildorligini oshiradi. Demak, o'simlikchilik va chorvachilik tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ularni qo'shib olib borish barcha sosial iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ma'lum darajada barqarorlashtiradi.

Chorva mahsulotlari qayta ishlashda hosil bo'ladigan qo'shimcha va qoldiqlar ham ozuqa sifatida ishlatiladi.

Ko'rsatish lozimki, chorva mahsulotlari oqsili o'simlik mahsulotlari oqsiliga nisbatan juda qimmat turadi. Chunki, 1 kg sut oqsiliga 3-5 kg ozuqa birligi, mos ravishda tuxum oqsiliga 4-6, mol go'shti oqsiliga esa 15-20 kg ozuqa birligi sarflanadi.

Chorva oqsillarining qimmatligi va uni ishlab chiqarish hajmining kamligi tufayli jahon xalqlarining taxminan 50 %i ilmiy asoslangan me'yorga nisbatan kam chorva oqsili iste'mol qiladilar.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda yashovchi taxminan 20 % jahon aholisi 1 kunda 100 gr. dan ko'proq, iqtisodiyoti kuchsiz mamlakatlarning xalqlari esa 10-25 gr. chorva oqsili iste'mol qiladilar.

Chorva mahsulotlari iste'mol qilish darajasi faqatgina aholining turmush darajasi bilan emas, balki urf-odatlar bilan ham bog'liq. Masalan, Hindiston aholisining ko'pchiligi go'sht mahsulotlarini iste'mol qilmaydi.

O'zbekistonda yashovchi aholi turmush darajasining o'sishi bilan chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talab oshadi, ularni ko'paytirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish tarmoqning sosial iqtisodiy samaradorligini yanada oshirishga sharoit yaratadi.

Ayrim chorvachilik tarmoqlarining samaradorlik ko'rsatkichlari o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularni hisoblash tahlil etish va baholashda ham tafovutlar majud. Binobarin, har bir tarmoqning samaradorligi ishlab chiqarish hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni alohida-alohida o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Chorva hayvonlari iqtisodiyoti quyidagi guruhlar va turlari bo'yicha o'rganiladi:

1. Qoramolchilik- go'sht va sut yo'nalishi bo'yicha;
2. Qo'ychilik- go'sht, jun, teri yo'nalishi bo'yicha;
3. Echkichilik- jun va tivit, sut yo'nalishi bo'yicha;
4. Cho'chqachilik- bekon, yarim yog', yog'lik go'sht yo'nalishi bo'yicha;
5. Parrandachilik- tuxum va go'sht broyler yo'nalishi bo'yicha;
6. Yilqichilik- go'sht va sut, ish hayvonlari hamda sport yo'nalishi bo'yicha;
7. Tuyachilik- go'sht, jun va sut yo'nalishi bo'yicha;
8. Pillachilik bo'yicha;
9. Asalarichilik bo'yicha;
10. Quyunchilik bo'yicha;
11. Hovuz baliqchiligi bo'yicha;
12. Mo'ynachilik bo'yicha va boshqalar.

Har bir chorva hayvonining jami bosh soni va tarkibi, mahsuldorligi, zotlari, oziqlantirilishi, saqlanishi, mahsulotlari tannarxi, sotish baholari, rentabelligi va boshqa ko'rsatkichlari o'rganiladi, tahlil etiladi va baholanadi.

Bundan tashqari, ayrim hayvonlarni shartli molga (aniqrog'i sigirga) aylantirilib, ayrim ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham o'rganiladi va h.k.

4 Chorvachilikning asosiy tarmoqlari va ularning xususiyatlari.

1990 yilda 1913 yilga nisbatan barcha turdagi yalpi go'shtlar (so'yilgan vaznda)- 5,2 marta, sut-33,2 marta, tuxum-26,9 marta, jun-4,4 marta, pilla-8,2 marta ko'paygan. Ko'pchilik mahsulotlar aholi soniga nisbatan tezroq oshgan. Natijada aholi jon boshiga mahsulotlar miqdori ham har xil darajada ko'paygan. Masalan, go'sht-12% ga, sut-174% ga, tuxum-5,7 marta ko'paygan.

2000 yilda 1990 yilga nisbatan aholi jon boshiga go'sht ishlab chiqarish qariyb 14 % ga, tuxum-51,5% ga, jun-2 marta, qorako'l teri- 2,3 marta, pilla-55% ga kamaygan.

1990 yilda 1915 yilga nisbatan qoramollar soni qariyb 3 marta, qo'y va echkilar - 2 martadan ortiqroq, cho'chqalar - qariyb 185 marta, parrandalar 102 marta ko'paygan, otlar esa - 20 marta kamaygan. Asosiy mahsuldor hayvonlarni shartli qoramolga (yirik koeffitsiyentlar bilan hisoblanganda) aylantirilgan soni - qariyb 2,8 marta ko'paygan.

2000 yilda 1990 yilga nisbatan qoramollar soni 27,6 foizga, qo'y va echkilar - qariyb 1,7 foizga, otlar-50 foizga ko'paygan, cho'chqalar soni esa-8,8 marta, parrandalar-2,6 marta kamaygan. Asosiy mahsuldor hayvonlarni sharti qoramolga aylantirilgan soni- qariyb 8 foizga ko'paygan.

Chorva mollarining ayrim turlarini ma'lum darajadagi kamayishi yoki ularni o'sish sur'atini nisbatan pastligi, chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'moldagi ayrim tarkibiy o'zgarishlar bo'lsa bu kamchiliklar 2004 yilga kelib birmuncha muvofiqlashtirishga erishildi.

Ayrim turlar - cho'chqachilik, parrandachilikdagi bu nomutanosiblikni barham berishda ma'lum darajadagi natijaga erishildi.

Chorva mollarining mahsuldorlik ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar mavjud. Masalan, 1990 yilda 1915 yilga nisbatan har bir bosh sigirdan sog'ilgan sut 3,9 marta, tovuqdan olingan tuxum-3 marta, qo'vdan qirqilgan jun - qariyb 3 marta, so'yilgan hayvonlarning vazni ham sezilarli darajada oshgan.

2000 yilda 1990 yilga nisbatan ayrim hayvonlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari biroz pasaygan. Masalan, har bir bosh sigirdan sog'ilgan sut 14 foizga, har bir tovuqdan olingan tuxum-7 foizga, so'yilgan qoramollarning vazni - qariyb 9 foizga kamaygan. Mahsuldorlik ko'rsatkichlarining pasayishi dastavval hayvonlarni oziqlantirish darajasining pastligi va boshqa real imkoniyatlardan foydalanish bilan bog'liq.

Istiqbolda chorva mahsulotlarini ko'paytirish asosan mahsuldorlikni oshirish hisobiga erishilishi maqsadga muvofiqdir.

5 Chorvachilik tarmoqlari ishlab chiqarishi va uning iqtisodiy samaradorligi.

Respublikada uzoq yillardan beri ayrim chorva mahsulotlarini, shu jumladan, mol va parranda go'shtlarini, jun, pilla ishlab chiqarish va sotishdan ko'pchilik korxonalar zarar ko'rmoqdalar. Boshqa mahsulotlarning rentabellik darajasi ham bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga to'laroq javob bermaydi.

Barcha turdagi chorvachilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi omil va imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish zarur:

1. Chorva hayvonlari mahsuldorligini oshirish. Bu o'ta dolzarb vazifani bajarish uchun ularni turli xil ozuqalarga bo'lgan talablarini ilmiy asoslangan rasionlar bo'yicha muntazam qondirish. Natijada zotdor hayvonlarning mahsuldorlik potentsiali hamda sarflangan ozuqalar samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish, ko'proq, sifatliroq hamda arzonroq mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish imkoniyati yaratiladi;

2. Chorva hayvonlarning zotdorlik belgilarini saqlash va yanada mustahkamlash maqsadida seleksiya, naslchilik ishlarini yuqori darajada tashkil etish, jumladan, sun'iy urchitish, geterozis ustunliklaridan to'laroq foydalanish;

3. Qishloq xo'jalik korxonalari, fermer, dehqon xo'jaliklarini yuqori mahsuldor zotli chorva mollari bilan muntazam ta'minlash maqsadida yuqori mas'uliyatli naslchilik zavod va naslchilik xo'jaliklarini barpo qilish ularni imtiyozli sharoitlardan foydalanishga imkon yaratish.

4. Chorvadorlarning mehnat unumdorligi va mehnat haqini barqaror oshirish uchun texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish usullaridan foydalanish; dastavval, ozuqalarni taqsimlash, sigirlarni sog'ish, qo'y va echkilar junini qirqish, sug'orish, binolarni chorva qoldiqlaridan tozalash, ulardan foydalanish bilan bog'liq va boshqa ishlarni progressiv vositalar yordamida bajarish;

5. Hayvonlarni saqlashning progressiv usullaridan, shu jumladan, bog'lamasdan saqlash, mahsus qo'ralardan foydalanish;

6. Asosiy vositalardan ayniqsa, chorva binolari va inshootlari quvvatidan oqilona foydalanish;

7. Progressiv zooveterinariya xizmatlaridan foydalanish va h.k.

Qoramolchilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.

Qoramolchilikni rivojlantirish to'yimli ozuqalarga nisbatan anchagina arzon o'simlik ozuqa (ko'k o't, dag'al, shirali va boshqalar) resurslaridan foydalanib sut va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Bu tarmoqning samaradorligi, dastavval sigirlarning boshqa ona hayvonlarga nisbatan bir necha barobar ko'p sut berishi bilan ta'minlanadi. O'zbekistonda hozir rivojlantirilayotgan qora-ola, qizil chul, shvis, kabi asosan zotdor sigirlardan bir yilda 3500-5000 kg sut va ogirligi 30 kg bir bosh buzoq olish potensial imkoniyati mavjud. Laktasiya davrida har bir sigirdan sog'ib olingan yalpi sutning 5-6 foizi buzog'iga sarflansa, qolgan qismi 12-15 kishini ilmiy asoslangan me'yorda sut va qayta ishlangan sut mahsulot (yog', pishloq, qaymoq, qatiq va boshqa)lari bilan ta'min etishga imkoniyat yaratadi. Olingan buzoqlarni intensiv ozuqlantirilsa uning tirik vazni bir yilda 180-200 kg ga yetadi va 5-6 kishini ilmiy asoslangan me'yorda mol go'shti va undan qayta ishlangan mahsulot (kolbasa va boshqa)lar bilan ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Oxirgi yillarda O'zbekistonning sut balansi aktivida sigir suti 90% dan ortik, go'sht balansida esa -70% dan ortikrog'i mol go'shtidir. Bu mahsulotlarni barcha yoshdagi odamlar iste'mol qiladi, ularni jismoniy baquvvat qiladi va umrini uzaytiradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, 1kg sut oqsiliga qoramol go'shti oqsiliga nisbatan 5-6 marta kam ozuqa birligi sarflanadi. Qoramol podasida sigirlar hissasining ko'payishi tarmoqning samaradorligini bevosita oshiradi.

Qoramol terisidan sifatli charm tayyorlanadi, oyoq va boshqa kiyimlar ishlab chiqariladi.

Qoramollar qoldig'i go'ngdan foydalanish tuproqning unumdorligini, binobarin, o'simliklar hosildorligini oshiradi.

Demak, qoramolchilikni intensiv rivojlantirish mavjud mehnat, yer, suv va boshqa resurslardan samarali foydalanishga imkoniyatlar yaratadi va hokazo. Ulardan to'laroq va samaraliroq foydalanish asosiy vazifadir.

O'zbekistonda uzoq yillar mahsuldorligi past, issiq iqlim sharoitiga moslashgan, kasalliklarga chidamli qoramolchilik rivojlantirilgan. Tarmoqning sosial-iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida xorijiy mamlakatlardan zotdor va metis qoramollar sotib olingan. Respublika olimlari va mutaxassisleri ham ularni iqlim sharoitiga moslashtirish ishlarini amalga oshirdilar va hokazo.

Taxlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda fuqarolar (graжданlar) urushi yillarida qoramollarning bosh soni keskin kamaygan. 1924 yili 1915 yilga nisbatan ularning bosh soni 538 ming boshga yoki 39% ga kamaygan. Bunday holat 2-jaxon urushi yillariga ham xos. 1945 yilda 1940 yilga nisbatan 445 ming boshga yoki 24% ga kamaygan. 2000 yilda 1960 yilga nisbatan mos ravishda 135 va 16 % ga ko'paygan. yillarda sigirlar bosh soni tezroq ko'paygan. Ularning jami qoramollarga nisbatan hissasi ham oshgan. Mos ravishda 1960 yilda 40,9 %, 1990 yilda-40,5, 2000yilda esa - 43,9% ni tashkil etgan.

Sigirlardan sut sog'ib olish, so'yilgan mollarning vazni va boshqa mahsuldorlik ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar bo'lgan. Masalan: 1990 yili 1960 yilga nisbatan bir bosh sigirdan sog'ib olingan sut qariyb 2 marta oshgan. 2000 yilda 1990 yilga nisbatan esa mos ravishda qariyb 13% ga kamaygan. So'yilgan qoramolning tirik vazni ham 2000 yilda 1990 yilga nisbatan 12% ga kamaygan. Maxsuldorlikning pasayishi yalpi sut va go'sht mahsulotlarining hajmiga salbiy ta'sir etgan

Uzoq yillar davomida ko'pchilik xo'jaliklarda mol go'shti ishlab chiqarish va sotishdan zarar ko'rdilar, sut tannaxtiga kiritilgan xarajatlarning rentabellik darajasi ham tarmoqda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tezlashtirishga sharoit yaratolmadi.

Ko'proq, sifatliroq va arzonroq qoramolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda sotish uchun quyidagi omillar va imkoniyatlardan oqilona foydalanish zarur:

1. Sigirlardan olinadigan sut va buzoq miqdorini ko'paytirish lozim. Ko'p xo'jaliklarda mahsuldorlikning bu ko'rsatkichlari ularda rivojlanayotgan zotdor sigirlarning potensial imkoniyatiga nisbatan 2-3 marta past bo'lmoqda. Natijada ularni oziqlantirish xarajatlari samaradorligi 3-4 marta pasaymoqda;

2. Go'sht yo'nalishdagi qoramollarni so'qimga boqishga kunlik o'sishi, o'rtacha tirik va so'yilgan vazni va boshqa mahsuldorlik ko'rsatkichlari ham rivojlantirilayotgan zotlarning potensial imkoniyatidan 30-35% ga past tashkil topmoqda. Natijada ularni oziqlantirish va saqlash muddatlari cho'zilib ketadi, barcha xarajatlar samaradorligi ham pasayadi;

3. Rivojlanayotgan iqlim sharoitiga moslashgan qoramollarning zotdorlik belgilarini mustaxkamlash maqsadida seleksiya va naslchilik ishlari sifatini ko'tarish, shu jumladan, sun'iy urug'lantirishni amalga oshirish;

4. Chorvadorlarning mehnat unumdorligi va qili ngan mehnat manfaatdorligini oshirish omillaridan va imkoniyatlaridan oqilona foydalanish;

5. Asosiy vositalardan, shu jumladan, mahsus chorva binolar va inshootlar quvvatidan yil davomida to'laroq foydalanish;

6. Progressiv zooveterinariya xizmatlaridan foydalanish.

Qo'ychilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.

Qo'ylar, qoramol va boshqa hayvonlarga nisbatan serharakat, tuyoqlari va oyoqlari baquvvat, o'tkir tishlari past va siyrak o'sgan o'tlarni, hatto yerga to'kilgan mayda barglarni terib olib istemol qilish qobiliyatiga egadir. Ular achchiq, sassiq hidlik, tikanlik o'tlarni ham iste'mol qiladi. Qo'ylar O'zbekistonda o'sadigan 880 tur o'simliklarning 520 yoki 59% ini, qoramollar esa - 20% iga yaqinini iste'mol qiladi.

Demak, qo'ychilikni rivojlantirish O'zbekistonda mavjud 24-25 mln ga cho'l, yarim cho'l, tog' bag'ri yaylovlari va pichinzorlarida o'sadigan ozuqa resurslaridan to'liqroq foydalanishga sharoit yaratadi.

Qo'ylar jazirama issiqqa, qattiqqina sovuqqa, suvsizlikka ham chidamli. Tarmoqni rivojlantirish qo'shimcha kapital qo'yilma, mehnat resurslarini ham talab etmaydi.

Qo'ychilik aholi uchun oziq-ovqat (go'sht, yog', sut), sanoat uchun xom ashyo (jun, qorako'l teri, teri) yetkazib beradi. Junni qayta ishlash jarayonida junli kiyim, trikotaj, sukna, odevyal, gilam, oyoq kiyim va boshqalar tayyorlanadi. Qorako'l teridan telpak, yoqa, po'stin va boshqalar tayyorlanadi; uning terisidan po'stin, yarim po'stin va boshqalar tayyorlanadi; charmidan oyoq va boshqa kiyimlar tayyorlanadi.

Qo'ychilikning xalq xo'jaligi ahamiyati uning itisoshlashishiga qarab anchagina tafovut qiladi.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda rivojlantirilayotgan qo'y zotlarini quyidagi guruhlarga bo'lib taxlil qilish va iqtisodiy baholash maqsadga muvofiqdir:

- 1- guruh- mayin junli qo'ychilik;
- 2- guruh- yarim mayin junli qo'ychilik;
- 3- guruh- qorako'l teri uchun qo'ychilik;
- 4- guruh- po'stinbop teri beradigan qo'ychilik;
- 5- guruh- go'sht-yog' beradigan qo'ychilik.

O'zbekistonda 1 va 2 guruhlarga kirgan qo'ychilik zotlari juda kam miqdorda rivojlantiriladi. Jun balansini mayin va yarim mayin jun tashkil etadi; kolgan guruh qo'ylaridan dag'al jun olinadi. Barcha turdagi qo'y hamda echkilarning go'shtlari respublika go'sht balansida 10-15 foizni tashkil etadi.

Qo'ylarning iste'mol qiladigan tabiiy vaylov ozuqalari iqtisodiy baholanmaydi, natijada, odatda, qo'ychilikdan nisbatan arzon oziq-ovqatlar hamda xom ashyolar ishlab chiqariladi. Respublikada ularni qayta ishlash va sotish qo'ychilikning xalq xo'jalik ahamiyatini yanada oshiradi. Qorako'l teri mahsulotlarini jahon bozorida sotish respublika volyuta fondini ko'paytiradi

O'zbekistonda qo'ychilik noqulay yer va iqlim sharoitlari hamda aholining ko'p yillik tajribasini hisobga olib rivojlantiriladi. Qo'ychilik mahsulotlari, ularning bosh soni va mahsuldorligini oshirish evaziga ko'payadi.

O'zbekiston 1900 yilgacha qorako'l qo'ylarning asosiy qismi bo'lgan yagona mamlakat bo'lib, shu davrda mamlakatda 3 mln. boshga yaqin qorako'l qo'y bo'lgan.

XX asr boshlarida Buxorodan kam sonli qorako'l qo'y zotlarini Janubiy - G'arbiy Afrika (hozirda Namibiya) davlatiga olib kirilgan edi. Mana shu qism qo'ylar Janubiy - Garbiy Afrika Respublikasida qorako'lchilikning rivojlanishiga asos bo'ldi.

1850 yilda Parijda o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmada fransuzlar birinchi marta manto va jaketlarni taklif qilishganda jahon bozorining asosiy e'tiborini tortdi.

Jahonda qorako'l ishlab chiqarishda sobiq SSSR uzoq vaqt monopolist bo'lib kelgan, SSSRda qorako'l yetishtirish bo'yicha O'zbekiston birinchilardan bo'lib kelgan.

Jahon bozoriga yetkazib turilgan qorako'l terilar 80-yillarda 7 mln. dona bo'lgan bo'lsa, shundan O'zbekistonning hissasi 2,4 mln. dona (34,2%)ni tashkil etgan.

SJK preparatining qo'llanishi 1984 yil to'xtatilgan bo'lishiga qaramasdan, 1985-1995 yillar davomida (SJK) stimulyatorini nazoratsiz qo'llash natijasida qorako'l teri yetishtirish ikki barobarga kamayib ketdi. Stimulyatorning qo'llanishi tug'ilajak qo'zilar sonini ko'paytiradi, bunda bitta ona qo'y 3 yoki 4 ta qo'zi tuqqan. Bu esa ona qo'ylarning fiziologik holatiga salbiy ta'sir qilgan. Bu esa o'z navbatida qorako'l teri sifatiga ham ta'sir ko'rsatgan.

90-yillar o'rtalarida jahon qorako'l bozorida ishlab chiqarishning pasayganligi kuzatildi. Ishlab chiqarish pasayib ketish arafasida bo'ldi. Mahsulotga bo'lgan talab o'smadi. Qorako'l yetishtirish hajmi 70-yillarda 10 mln. bo'lgan bo'lsa, 80-yillarda 7 mln., 90-yillarda 4-5 mln. ga yaqin, hozirgi vaqtda 3 mln. ga yaqin deb baholanmoqda.

BMTning oziq ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari tashkilotining ma'lumotiga ko'ra 1980-1984 yillarda jahonda qorako'l qo'ylar bosh soni 30 mln. deb ko'rsatildi. Hozirgi vaqtda qorako'l qo'ylar bosh soni 15 mln. deb baholanmoqda.

Jahonda qorako'l ishlab chiqarishida birinchilardan Afg'oniston, keyin O'zbekiston undan keyin Turkmaniston, Qozog'iston, Eron, Namibiya va boshqa davlatlar hisoblanadi.

Qorako'l O'zbekistonning iftixori va boyligi hisoblanadi. Qorako'l terilarining o'ramalarning o'ziga xosligi, tabiiyligi, naqshlarining boyligi, ipakdek yumshoqligi, valtiroqligining yuqoriligi bilan qorako'l terilar jahonda shuhrat qozondi. O'zbekiston jahonda qorako'l qo'ylarining vatani hisoblanmay, balki qorako'l qo'ylarini yetishtiruvchi asosiy baza ham bo'lib hisoblanadi.

Qorako'l yetishtirish bo'yicha respublikaning yettita viloyati: Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston respublikalari shug'ullanadi.

1920 yillargacha qorako'lchilar ko'chmanchilik yoki yarim ko'chmanchilik holatida bo'lib quylarning mahsuldorligi past edi. Qish og'ir kelgan vaqtlarda foydalanish uchun zahira ozuqa mahsulotlari yo'q edi va quylarning sezilarli qismi o'lib ketar edi. Shunday holatni 1892 va 1917 yillar misolida ko'rish mumkin, bu vaqtda qishlov og'ir kelishi natijasida qorako'l qo'ylarning 9095% qismi yaqin qorako'l qo'ylari bo'lganligi ko'rsatilgan. Shuning 80%i Buxoro amiri va uning yaqinlariga katta boylarga tegishli bo'lgan.

1928 yil O'zbekistonda birinchi marta «Muborak» qorako'lchilik sovxozi tashkil etilgan, hozirgi kunda ham mana shu xo'jalik qora rangli qorako'l terilarini yetishtiruvchi naslchilik xo'jaliklaridan biri bo'lib hisoblanadi. Oxirgi vaqtlarda kolxoz va sovxozlarda bo'lgan qorako'lchilik suruvlaridan qora rangli qorako'l terilarini ishlab chiqaruvchi naslchilik zavodlari va fermalari tashkil etildi. Bular: «Nishon», «Konimex» va «Qorako'l».

Kulrang va sur rangli terilarni yetishtiruvchi «Oq-qapchig'ay», (hozirda «Sayxun» va «Oq-qapchig'ay»), «Nurota», «Qoraqum», «Karnob», «G'uzor» naslchilik fermalari, Buxoro va Navoiy shirkatlari.

1935 yilda tashkil etilgan O'zbekiston zonal qorako'lchilik tajriba stansiyasi keyinchalik O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng qayta tashkil etilib «Cho'l ekologiyasi va qorako'lchilik ilmiy tekshirish instituti»ga aylantirildi. Hozirgi vaqtda Respublikada 18 ta naslchilik zavodi va 13 ta naslchilik xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda.

Qorako'lchilikdan olinadigan mahsulot qorako'l qo'zi terilari bo'lib, u tabiat mo'jizasi sifatida butun dunyoda mashhurdir.

2004 yili Respublikaning barcha turdagi xo'jaliklarida 375 ming donaga yaqin yuqori sifatli qorako'l teri ishlab chiqarilib mamlakat ichidagi va chet el iste'molchilariga yetkazib berildi.

Bu mahsulotni asosiy qismi horijga sotilib, mamlakat valyuta tushumini ortishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari qorako'l zotli qo'ylar O'zbekistonda mavjud bo'lgan cho'l, yarim cho'l zonasi bo'lgan 25 mln.ga yaqin noqulay sharoitida arzimagan efimer o'simliklar va buta, butasimon o'simliklardan tashkil topgan dag'al oziqalardan o'ta samarali foydalanishi bilan alohida e'tiborga sazovordir. Eng og'ir sharoitga o'z chidamliligini ko'rsata olgan chorva moli sifatida qadrlanadi.

Qorako'l quylari qorako'l terisidan tashqari iste'mol uchun juda sifatli bo'lgan go'sht mahsuloti bilan ham ahamiyatlidir. Qorako'l qo'y go'shti boshqa zotli qo'ylar go'sht mahsulotlari bilan o'zlarini shifobaxshligi sifati - (mramornost) muskul va yog'to'qimalarini qavatma-qavat joylashishi bilan keskin ajralib turadi. Qorako'lchilikda teri va go'shtdan tashqari, yosh quzi oshqozoni (sbichug), jun, shifobaxsh, yuqori darajali yog'li sut mahsulotlari va boshqa turdagi yordamchi va qushimcha mahsulotlar olinib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jabhasida muhim o'rinni egallaydi.

Demak, qo'ychilik, shu jumladan qorako'lchilikni ko'paytirish imkoniyatlaridan foydalanish bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga to'laroq javob bermayotir va hokazo.

Istiqbolda qo'ychilik mahsulotlarini ko'paytirish va sifatini takomillashtirish tarmoqni intensiv yuritish darajasini keskin ko'tarish hisobiga amalga oshirilishi lozim.

Ko'pchilik korxonalarda go'sht, qorakul teri va jun mahsulotlarining tannarxi va

sotish baholarining oshishi kuzatilmoqda, tannarxga kiritilgan xarajatlarning rentabellik darajasi bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga to'liq javob bermaydi.

Tarmoq mahsulotlari iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillardan va imkoniyatlardan foydalanish zarur:

1. Qo'ychilikda tabiiy yaylov ozuqa resurslarining axamiyatini hisobga olish, yaylovlarning hosildorligini oshirish chora tadbirlarini muntazam amalga oshirish lozim. Bu maqsadda yaylov aylanuvini tashkil etish, qo'shimcha serhosil yaylov o'simliklarining urug'larini ekish va boshqalar. Qish oylarida tabiiy ozuqalar proteinining 2-3 marta kamayib ketishi hisobiga qo'ylarga qo'shimcha kuchli ozuqa berish zaruriyati kelib chiqadi. Bunday jarayon amalga oshirilmasa ona qo'ylardan olinadigan qo'zilarning sifatli belgilari pasayadi, ulardan olingan teri ham mayda bo'ladi va hokazo.

2. Cho'ponlarning mehnat unumdorligi va ularning mehnatiga haq to'lashni oshirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish kerak. Bu fazifani boshqarish uchun sermehnat jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish, xar bir cho'ponga birlashtirilayotgan qo'ylar sonini ilmiy asoslangan me'vorlar darajasiga yetkazish, cho'ponlar oilasiga ma'ishiy va boshqa xizmatlarni yuqori darajada tashkil etish zarur va hokazo.

3. Zooveterinariya xizmatlarini tashkil etishda progressiv usullardan foydalanish, optimal muddatlarda qo'zi olish, qochirish, junini qirqish, sug'orish va boshqa texnologik ishlarini talab darajasida bajarish.

4. Jun va qorako'l teri mahsulotlarini qayta ishlash va ularni ichki va tashqi bozorlarda erkin, kelishilgan shartnoma baholarda sotishni amalga oshirishga amaliy yordam ko'rsatish.

6 Parrandachilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.

Parrandachilikning asosiy mahsulotlari - tuxum va parhyezli parranda go'shti aholi uchun o'ta foydali oziq-ovqat hisoblanadi. Tuxum tarkibida inson organizmida 100 % hazm bo'ladigan oqsil hamda vitamin, moy va boshqa moddalar bor, u eng yuqori kaloriyali parhyez taom hisoblanadi.

Parranda, ayniqsa jo'ja go'shti tarkibi ham inson organizmi uchun tez va to'laroq hazm bo'luvchi moy, oqsil, vitamin va boshqa moddalarga boy. G'oz va o'rdak go'shtlarida inson organizmi uchun foydali moy, oqsil va boshqa moddalar ham mavjud. Ular katta kaloriya bo'yicha cho'chqa va qoramol go'shtlaridan yuqori.

Parrandalar tez ko'payuvchi va yetiluvchi hayvondir. Tovuq, o'rdak, kurka, g'oz 5-7 oylik bo'lishi bilanoq tuxum bera boshlaydi. Bir tovuqdan yiliga maksimum 300 dona tuxum va undan jo'ja ochirib go'sht uchun boqilsa, tirik vaznda 4 s. go'sht olish mumkin.

Jo'jalar jadal oziqlantirilsa 50-55 kunda 1,5-2,0 kg, o'rdaklar esa 3-3,5 kg og'irlikka ega bo'ladi. Parrandachilikning boshqa hayvonlardan samaradorligi shundaki, ularga sarflanadigan ozuqalar birligiga anchagina ko'proq foydali mahsulot ishlab chiqiladi. Masalan, 1 kg jo'ja go'shti ishlab chiqarish uchun 3,5-4 kg, g'oz va o'rdak go'shti uchun 4,5-5 kg ozuqa birligi sarflanadi; 1kg cho'chqa go'shti va mol go'shtlariga esa mos ravishda o'rtacha 6,5-8,5 kg sarflanadi; 1kg tuxum oqsiliga mol go'shti oqsiliga nisbatan 4-5 marta kam ozuqa birligi sarflanadi.

Parrandachilikning qoldiq mahsuloti go'ngdan o'simlikchilik tarmoqlarida, ayniqsa, yopiq maydon sabzavotchiligidan foydalanish ularning hosildorligini sezilarli darajada oshiradi. Parrandalarni so'yishdan olingan pardan yostiq, ko'rpa va boshqalar tayyorlanadi.

Parrandachilikni sanoat asosida rivojlantirish mahsuldorlik va mehnat unumdorligini oshirish hamda yil davomida barqaror miqdorda tuxum va go'sht ishlab chiqarish hamda sotish uchun qulay sharoit yaratiladi, kapital qo'yilmalarning qaytish muddatini tezlashtiradi va hokazo.

Parrandachilik, uning asosiy turi, tovuqchilik uzoq davrlardan beri rivojlantiriladi.

Donishmandlarimiz parrandachilikni insonlarning yetti boyligidan biri deb ham baholaydilar. Ammo parrandachilikning tashkil etilishi uzok yillar uning xalq xo'jalik ahamiyatiga mos kelmagan. Parrandalarning bosh sonini ko'paytirishda, ularning mahsuldorligini oshirishda, odatda oddiy ekstensiv usullardan foydalanilgan.

O'zbekistonda 1913 yilda aholi jon boshiga 0,08 bosh parranda to'g'ri kelgan, har bir tovuqdan 50 dona tuxum olingan, jon boshiga atigi 21 dona ishlab chiqarilgan, xolos.

Fuqarolar urushi yillarida tuxum ishlab chiqarish yanada kamayib ketgan. 1924 yilda 1913 yilga nisbatan qariyb 2 marta kam tuxum ishlab chiqarilgan. Bunday holat 2-jaxon urushi yillarida ham davom etgan. 1945 yilda 1940 yilga nisbatan tuxum ishlab chiqarish qariyb 3,5 marta kamaygan.

Parrandachilikni tezroq rivojlantirish asosan tarmoqda sanoatga xos texnologiyani keng joriy etish yillaridan boshlangan. Parrandalarning bosh soni va mahsuldorligini oshirishda keskin o'zgarish bo'lgan. Masalan, parrandalarning bosh soni 1990 yilda 1960 yilga nisbatan 4,7 marta, Xar bir tovuqdan olingan tuxum esa qishloq xo'jaligi korxonalarida qariyb 2 marta, aholi jon boshiga tuxum ishlab chiqarish esa 1,7 marta ko'paygan.

Ammo, 1990 yilda aholi jon boshiga 120 dona tuxum va 3,3 kg parranda go'shti ishlab chiqarilgan, xolos. Bu ko'rsatkich belgilangan tibbiy meyerlarga nisbatan 3-4 marta kam edi. 2000 yilda 1990 yilga nisbatan parrandalar soni qariyb 3 marta, Har bir tovuqdan olingan tuxum - 13% ga, ishlab chiqarilgan tuxum miqdori qariyb 2 marta, parrandalar go'shti esa 5 marta kamaygan.

Demak, parrandachilikning oxirgi yillardagi rivojlanish darajasi uning xalq xo'jalik ahamiyatiga, boshqa chorva tarmoqlariga nisbatan ustunliklariga mutlaqo mos kelmaydi.

Istiqbolda parrandachilikni tiklash, tezroq rivojlantirish ob'ektiv zaruriyatdir. Uni faqat dehqon va fermer xo'jaliklarida emas, balki yirik parrandachilik fabrikalarida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bunday tajriba iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda barqaror amalga oshirilmoqda, hamda yuqori sosial-iqtisodiy samara bermoqda.

Ko'pchilik xo'jaliklarda, ayniqsa, parrandachilik fabrikalarida tuxum ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining rentabelligi bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga javob beradi. Ammo parranda go'shtlarini yetishtirishda va sotishda bu ko'rsatkichni optimal tashkil topish imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga erishilgan emas.

Ko'proq, sifatliroq va arzonroq parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish uchun quyidagi omillardan va imkoniyatlardan to'laroq foydalanish zarur:

1. Tarkibida 15-20 ta moddalar mavjud bo'lgan omuxta yemlardan foydalanish;

2. Xo'jaliklarning ixtisoslashishini hisobga olib elita hamda gibrid parranda zotlarini ko'paytirish zarur. Oxirgi yillarda O'zbekiston parrandachilik fabrikalarida va boshqa xo'jaliklarda "Leggorn", "Kornish", krosslardan «Ko'ng'ur-xayseks», «Lomoni-braun» kabi tovuq zotlaridan foydalanish yuqori samara bermoqda.

3. Inkubasiya jarayonida sog'lom jo'ja va boshqalarni olish uchun progressiv usullardan keng foydalanish kerak. Inkubasiyalanadigan tuxumlar mahsus karton qog'ozlarda va fleygalarda joylashtiriladi, 8-12⁰S issiklikda, nisbiy namligi 75-80% ga omborxonalarda, uzog'i bilan 5-6 kungacha saqlanadi. Inkubasiyalashdan oldin tuxumlarni formaldegid yod, azon, margansovka va boshqalar mahsus moddalar bilan zararsizlantirilishi ulardan foydalanish koeffitsiyentini oshadi.

1. Yosh jo'ja va boshqalarni mahsus kletkalarda hamda to'shamalarda saqlashning ham progressiv usullaridan foydalanish lozim. Ayniqsa ularni oziqlantirish belgilangan me'yorlarda va muddatlarda amalga oshirilishi, mikroklimatni saqlash aloxida ahamiyatga ega.

2. Zooveterinariya xizmatining progressiv usullaridan foydalanishni tashkil etish lozim.

3. Tuxum, go'sht, jo'ja va parrandachilik mahsulotlarini erkin, shartnoma baholarida sotish, parrandachilikda band bo'lgan ishchi va xizmatchilarga

kafolatlangan mehnat haqi to'lashni amalga oshirilishi muhim tadbir bo'lib hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati qanday?
2. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari deganda nimani tushunasiz?
3. Chorvachilikning qanday asosiy tarmoqlari va ularning xususiyatlarini bilasiz?
4. Qoramolchilik iqtisodiyoti va boshqaruvi haqida nimalar bilasiz?
5. Qo'ychilik iqtisodiyoti va boshqaruvi haqida nimalar bilasiz?
6. Baliqchilik, asalarichilik iqtisodiyoti va boshqaruvi haida nimalar bilasiz?

GLOSSARIY

(Mavzu: Chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyoti va boshqaruvi)

Chorvachilik / ЖИВОТНОВОДСТВО / Livestock breeding - aholi iste'moli uchun sut, go'sht, yog', tuxum va boshqa mahsulotlar olinadi.

Qo'ylar / ОВЦЫ / Sheep - qoramol va boshqa hayvonlarga nisbatan serharakat, tuyoqlari va oyoqlari baquvvat, o'tkir tishlari past va siyrak o'sgan o'tlarni, hatto yerga to'kilgan mayda barglarni terib olib istemol qilish qobilyatiga egadir.

Qo'ychilik / ОВЦЕВОДСТВО / Shepherding - aholi uchun oziq-ovqat (go'sht, yog', sut), sanoat uchun xom ashyo (jun, qorako'l teri, teri) yetkazib beradi.